

USTOZ VA MURABBIYLAR-SHARAFLI KASB EGALARI

Qudratova Gulzoda Shonazarovna.

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tuman 1-son Politexnikum o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talim-tarbiya, ta'lim jarayonida ustozlarning o'rni ustoz–shogird an'analari ustozlarga bo'lgan ehtirom, insonning barkamollikka intilishi yo'lidagi beqiyos xizmatlari, murabbiylik kasbi yosh avlod qalbida ezgulik, vatanparvarlik, sog'lom hayot tarzini shakllantirishda katta roli haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Talim, tarbiya, ustoz, shogird, ehtirom, barkamol inson, murabbiy, manaviyot chirog'i.*

Kirish Jamiyatda har qanday inson borki tashqi muhit bilan doimo aloqada uzviy bog'liq holda yashaydi. Go'dakning shaxs bo'lib shakllanishida birinchi ustoz ya'ni onaning tutgan o'rni beqiyos bo'lsa, shaxsning ijtimoiy hayotdagi o'rnini topishida ustoz va murabbiylarning xizmati alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiyotining poydevori – ta'lim va tarbiyadir. Ta'lim jarayonini esa ustoz va murabbiylarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Asrlar davomida ustoz-shogird an'analari o'z samarasini amalda ko'rsatib kelgan. Tarixiy shaxslarning ham ustozlariga bo'lgan ehtirom, unga bo'lgan hurmatlari beqiyos bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ayrim rivoyatlarga ko'ra Buyuk Sarkarda Amir Temur vafotidan so'ng ustoz Mirsayid Barakaning oyoq tomoniga qo'yishni vasiyat qilgan bo'lsa, Mir Alisher Navoiy bobomiz ustozining qabri yonidan otdan tushib, piyoda o'tib hurmatini bajo keltirganini ko'rishimiz mumkin.

Insonning barkamollikka intilishi, ilm va ma'rifatga chanqoqligi, odob-axloq me'yorlariga amal qilishi bevosita o'qituvchi va murabbiyning mehnati samarasidir. Ustoz har bir tolibi ilmlarini o'z farzandidek qabul qiladi va uning taqdiriga befarq bo'lmaydi. Shu bois, xalqimiz qadimdan “Ota-ona bergan tarbiya – umr bo'yi, ustoz bergan ilm – ming yillik” deya ustozlik kasbini ulug'lab kelgan [1].

Ustozlik – ilm va ma'naviyat chirog'idir. Uning bergan bilimi dengizdagi kemani o'z yo'lida ashmaslik uchun qo'yilgan mayoq kabidir. Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy va boshqa allomalar ustozlikning beqiyos maqomini ta'kidlab kelganlar. Navoiy “Ustodsiz shogird – boshqichsiz ko'priq” deya ilm olish yo'lida muallimning o'rni naqadar muhimligini ifodalagan [2]. Ustoz – nafaqat bilim beruvchi, balki insonni inson qilish, qalbini poklash, ongini yoritish kabi muqaddas vazifalarni bajaradi. Oqni qoradan, yaxshini yomondan farqlashni o'rgatadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ham ustoz va murabbiylar maqomi davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Har yili 1-oktabr – “O'qituvchi va murabbiylar kuni” keng nishonlanadi. Bu esa ularning mehnatiga yuksak hurmat ifodasidir [3].

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ustoz va murabbiylarni qo'llab quvvtlash maqsadida qator qonunlar qabul qilinishi, o'qituvchi va murabbiylarni o'z kasbiga bo'lgan mehrini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shular qatorida Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 1-avgustda qabul qilingan pedagogning maqomi to'g'risida qonun qabul qilindi[4]. Bu qonunning qabul qilinishi yurtimizda oqituvchilarga bo'lgan e'tibor yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda ustoz va murabbiylik – insoniyatning eng ulug' kasblaridan biri. Ularning fidoyiligi tufayli jamiyatda bilimli, ma'naviyatli va barkamol avlod voyaga yetadi. Shu bois, ustoz va murabbiylarni qadrlash, ularning mehnatini e'zozlash – kelajakni asrash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Pedagogning maqomi to'g'risidagi qonuni 2023y 1-avgust